

O'ZBEKISTONDA RIVOJLANIB KELAYOTGAN TURIZM TURLARI. JAILOO YA'NI ETNOTURIZM

Boykulova Diyora Rashid qizi

**Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti Turizm fakulteti
Gid hamrohligi va tarjimonlik yo'nalishi 2-bosqich talabasi**

boykulovadiora555@gmail.com

+998(91)887-83-08

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10910970>

Annotatsiya: Ushbu maqolada etnoturizmga alohida e'tibor qaratgan holda, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida rivojlanayotgan turizm sohasidagi yangiliklar va qulayliklar bayon etilgan. Turizmning jailoo turida har bir sayyoh xoh yolg'iz xoh oila azolari bilan birgalikda uy-mehmonxonalarida yashab haqiqiy o'zbek xalqining urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Kalit so'zlar: Turizm, visa, turpaket, ziyorat turizmi, UNESCO, me'moriy inshootlar, urf-odatlar, aviatsiya.

Аннотация: В данной статье с особым акцентом на этнотуризм изложены новшества и удобства в развивающейся в настоящее время в Республике Узбекистан сфере туризма. В виде туризма jailoo каждый турист, в одиночку или вместе с семьей, проживающий в домах-отелях, имеет возможность поближе познакомиться с традициями настоящего узбекского народа.

Ключевые слова: Туризм, виза, туристический пакет, паломнический туризм, ЮНЕСКО, архитектурные сооружения, традиции, авиация.

Abstract: This article, with a special focus on ethnotourism, outlines the innovations and amenities in the tourism sector currently developing in the Republic of Uzbekistan. In the jailoo type of tourism, every tourist, alone or with his family, living in hotel houses, has the opportunity to get to know the traditions of the real Uzbek people better.

Key words: Tourism, visa, travel package, pilgrimage tourism, UNESCO, architectural structures, traditions, aviation.

O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turli xil iqlimi ya'ni to'rt fasl ham ketma-ket kelishi va tez su'ratlarda rivojlanib kelayotgani bilan butun dunyo diqqatini o'ziga qaratmoqda. Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk Ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, istilochilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Qadimda, ota-bobolarimiz juda ham ko'p yodgorliklar qurishgan, hozirgi kunda sayyohlarni jalb etayotgan asosiy turistik obyektlardan biri bu bizning qadimgi hamda sharqona ruhda bunyod etilgan tarixiy obidalarimiz hisoblanadi desak adashmagan bo'lamiz. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, **Shahrisabz** va **Samarqand** shaharlari UNESCO ning "**Butun dunyo merosi**"ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshootlar o'tmish zamonlarni o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi. Buyuk Ipak Yo'li chorrahasida yashovchi o'zbeklarning

an'ana va odatlari ko'plab asrlar davomida so'g'diylar, baqtriyaliklar va ko'chmanchi qabilalar urf odatlari va shuningdek Islom dini urf-odatlari tasiri natijasida shakllandi. O'zbekiston bo'ylab sayohat mobaynida, sayyohlar nafaqat me'moriy yodgorliklarni ko'rishi va shuningdek xalq bayramlarini nishonlashda ham ishtirok etishlari mumkin (masalan, Navro'z yangilanish, bahor bayrami 21- mart kun va tun teng bo'lgan vaqt).

Bizning serquyosh yurtimizda gastronomik turizm ya'ni milliy taomlarimizga bo'lgan qiziqish ham yuqori darajada desak mubolag'a bo'lmaydi. Har bir viloyat o'zining mashhur bir taomi bilan sayyohlarni jalb etib kelmoqda. Misol uchun: **Jizzax somsasi, Samarqand oshi, Qashqadaryo tandir go'shti, Toshkent noni bilan mashhur** hisoblanadi. Taomlar ajdodlarning boy tajribasiga asoslangan holda, o'zbek xalqining hayot tarzi va madaniyatini aks ettiradi. Har qanday nozik tabii xo'randa ham ziravorlar isi bilan to'lgan o'zbek mehmonnavozligiga befarq tura olmaydi.

Sharqona bozorlar haqidagi an'anaviy tasavvurlar, to'kin-sochinlilik, xushmanzaralilik, shovqinlilikni O'zbekiston bozorlarida yaqqol ko'rish mumkin. Yaxshi bozor maxsulotlar bilan to'lib toshishi, rang barang meva va sabzavotlarning jilosi, baland ovoz va hayqiriqlar eshitilib turishi hamda savdolashuvlar bo'lishi kerak. Sharq bozorlari, ayniqsa, yoz hamda kuz faslida juda ham jilovlanadi buning ba'ri bizning serhosil bo'lgan meva va sabzavotlarimiz sabab. Bozorlarning qizg'in hayoti erta tongdan boshlanib kech tushganda tugaydi. Savdogarlarning mijozlarni baland ovozda chaqirishi, avtomobillar shovqini, milliy musiqa ovozi, rastalardagi rang barang meva va sabzavotlar, issiqqina nonlarning hidi sharqona bozorlarning takrorlanmas jozibasini yaratadi.

O'zbekiston hozirda rivojlangan transport infrastrukturasiga ega. Manzilga yetib olishingiz uchun sizga Buyuk Ipak Yo'li davridagidek bir oy kerak emas. O'zbekiston bo'ylab katta shaharlarga aviatsiya yordamida yetib olish tez va qulay. Sayyohlar mamlakatning chiroyli manzarali manzilgohlar o'rtasida qulay va tez bo'lgan transport vositasi moshina yoki avtobuslardan foydalanadilar.

O'zbekistonda turizm sohasi nisbatan yangi bo'lsada u rivojlanishda ko'pgina sohalardan oldinga chiqib oldi. Xalqaro turizmni rivojlantirish uchun bizning diyor juda kata salohiyatga ega. Mustaqillikkacha hech kim O'zbekistonni istiqbolli turizm hududi sifatida bilmas edi. Mustaqillikka erishilgach davlat tomonidan turizm sohasida yangi tamoyillar ishlab chiqildi.¹

1992 - yilning 27 - iyulida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti farmoni bilan **"O'zbekturizm" milliy kompaniyasi** tashkil topdi. 'O'zbekturizmning asosiy vazifasi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishdan iborat.

1993-yildan buyon bizning davlatimiz **Xalqaro turizm tashkiloti (UNWTO)**ning a'zosi hisoblanadi. **2004-yildan boshlab Samarqandda** -Buyuk Ipak Yo'lining "yuragi"da UNWTO ning transcontinental magistralda turizmni koordinatsiyasi bilan shug'ullanuvchi ofisi faoliyat yuritib kelmoqda.

O'zbekistonda har bir fasl turistlar uchun o'ziga hos bo'lishini ko'rsatib berish ham muhim rol o'ynaydi.²

¹@uzbekistan.travel

1. ²Узбекистон Республикасининг статистик ахборотномаси. 2017 йил январь-декабрь. -Т.: 2018. -146-б.

Bundan tashqari O'zbekistonning turistik salohiyatini qo'llab-quvvatlashda UNWTOning rahnamoligida o'tadigan, **Toshkentdagi Xalqaro "Ipak Yo'lidagi turizm" yarmarkasining** ham ahamiyati juda katta. Bu yarmarkaning asosiy maqsadi turizm sohasidagi o'zbek hamda xorij mutaxassislarini birlashtirish, ular o'rtasida professional hamkorlikni yanada kengaytirishdan iborat. Bugunga kelib bu xalqaro yarmarka Markaziy Osiyodagi eng yirik ko'rgazmalardan biri sifatida nom qozongan³.

Yangi turizm turlaridan biri **Jailoo** hisoblanadi. Bu turizm turini boshqa nomi ham bo'lib **etnoturizm** ham deyiladi. Jailoo turizmida siz deyarli inson qadami yetmagan, sivilizatsiya hali kirib bormagan, elektr va mobil aloqa bo'lmagan joylarga borib mahalliy xalqlar yashaydigan qishloq va o'tovlarda xuddi o'rta asr yoki bo'lmasa ibtidoiy sharoitlarda yashash imkoniyatiga ega bo'lasiz. Jailoo so'zi **qirg'izchadan jailoo ya'ni yaylov** so'zidan kelib chiqqan. Ushbu turizm turi 1990-yillarda Qirg'izistonda vujudga keldi. Asosiy sababchilaridan biri bular mahalliy turoperatorlardir. Ularning hayoliga g'arbdan keluvchi sayyohlarga o'tovlarda mahalliy cho'ponlarning hayotini bir muncha vaqt mobaynida yashab ko'rishni taklif etish keladi va shu tariqa mazkur turizm turi paydo bo'lgan. Ilk jailoo Shvetsariya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Rossiyalik sayyohlar tomonidan sinovdan o'tkazilgan. Ular 1 hafta mobaynida yaylovlarda yashab non, qo'zi go'shti va qimiz iste'mol qilishadi. Shu bilan bir qatorda ular unutilmas sayrlar, toza havo, mahalliy madaniyat bilan yaqindan tanishish, tungi yorqin osmonda yulduzlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishgan. Tez orada bu turizm turi katta mashhurlikka ega bo'lgan. Hozirgi kunda jailoo turizm turini dunyoning ko'plab mashhur agentliklari o'z xizmatiga kiritishgan.

O'zbekistonda ham har bir yo'nalish sayyohlar mahalliy xalqni yashash tarzi bilan tanishish, milliy taomlardan iste'mol qilish va folklor shou dasturlarini ko'rish uchun mahalliy xonadonlarga tashrif etishlari mumkin. Hozirgi kunda Toshkent viloyatining o'zida **750dan ortiq uy-mehmonxonalari** tashkil qilingan. Har bir sayyoh xoh yolg'iz xoh oila azolari bilan birgalikda uy-mehmonxonalariga kamida bir kecha kunduz yo bo'lmasa xohishga ko'ra vaqt mobaynida yashab haqiqiy o'zbek xalqining urf-odatlarini bilan yaqindan tanishish imkoniyati mavjud⁴

Xulosa qilib aytganda afsonaviy o'tmishi, Ipak Yo'lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan avlodga o'tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo'stligi va insoniy qadriyatlarini bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni xursand etuvchi O'zbekiston barcha burchaklaridan kishilarni o'ziga jalb etadi. Sayyohlik va mehmondo'stlik sohasi jahon miqyosida yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida xalqaro turizmning rivojlanish ko'rsatkichlari bu sohaning turli mamlakatlar iqtisodiyotining yetakchi tarmog'iga aylanib borayotganligini ko'rsatmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlar o'z iqtisodiy siyosatlarini ishlab chiqishda xalqaro turizmga ustuvor soha sifatida e'tibor bermoqdalar. Yurtimizda xalqaro turizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuvi mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallamoqda. Vatanimizda mavjud bo'lgan siyosiy,

³Узбекистон Республикаси туризмни ривожлантириш Давлат кумитаси Андижон вилояти ҳудудий бошкармаси маълумотлари. 2018 йил

2. ⁴Erkin G'ulomxonov, Suyunova Nilufar, Sardor Akramov, Sarvinoz Asadova "Turizmning noodatiy turlari" maqolasi 807/1

iqtisodiy, ijtimoiy barqarorlik xalqaro turizmni rivojlantirishda ham muhim o'rin kasb etmoqda

Bu shunchaki hozirgacha bo'lgan o'zgarishlar, kundan kunga har sohada rivojlanish kuzatilmoqda shu bilan birga turizm sohasida ham. Yurtboshimizning e'tiborlari, yoshlarning kreativligi hamda o'z ishining ustasi bo'lib ulgiran hodimlarning malakasi yordamida Turizm iqtisodiyotimizga katta foyda olib keladigan tarmoq bo'lsa ajab emas.

References:

1. @uzbekistan.travel
2. Ўзбекистон Республикасининг статистик ахборотномаси. 2017 йил январь-декабрь. -Т.: 2018. -146-б.
3. Ўзбекистон Республикаси туризми ривожлантириш Давлат кумитаси Андижон вилояти ҳудудий бошқармаси маълумотлари. 2018 йил.
4. Erkin G'ulomxonov, Suyunova Nilufar, Sardor Akramov, Sarvinoz Asadova "Turizmning noodatiy turlari" maqolasi 807/1



INNOVATIVE
ACADEMY